O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2026, [14]
ISSN 2181-7324(Print)

FILOLOGIYA
http://journals.nuu.uz
Social sciences
ISSN 3093-8996(Onlayn)

UDK: 821.512.133.09

Navruzgul TURDIYEVA,
Tayanch doktorant, Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, Toshkent, O‘zbekiston
E-mail:navruzgulturdiyeva3@gmail.com,ORCID kod: 0009-0004-5416-0752

DSc,professor S.Zokirova taqrizi asosida

LUQMON BO‘RIXON HIKOYALARIDA TIL VA USLUBNING BADIIY-ESTETIK XUSUSIYATI

Annotatsiya

Ushbu maqolada Luqmon Bo‘rixonning hikoyalaridagi uslub va til masalasi tahlil etilgan. Ijodkorning hikoyalarida xalqona til unsurlaridan unumli foydalanish, jonli muloqot va dialektizmlarning o‘rni, shuningdek, personajlar ruhiyatini ochib berishda ma’noli tasviriy ifodalarning ahamiyati atroflicha yoritilgan. Yozuvchining psixologik tasvir yaratishi, maishiy va ijtimoiy manzaralarni tasvirlashdagi o‘ziga xosligi va individual uslubi asoslab berildi. Maqola Luqmon Bo‘rixon nasriy merosining til va uslub xususiyatlarini o‘rganishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: Uslub, til, individual uslub, monologik nutq, diksiya, ekspressiv tasvir, stilistik vosita.

THE ARTISTIC-AESTHETIC CHARACTERISTICS OF LANGUAGE AND STYLE IN LUQMON BORIKHON’S STORIES

Annotation

This article analyzes the stylistic and linguistic aspects of Luqmon Bo‘rixon’s short stories. It examines in detail the author's effective use of folk language elements, the role of lively dialogue and dialectisms, and the significance of expressive imagery in revealing the characters' inner worlds. The article substantiates the writer's approach to psychological portrayal, as well as his distinctive style and unique method of depicting everyday life and social settings. It holds significant scientific and practical value for the study of the linguistic and stylistic characteristics of Luqmon Bo‘rixon’s prose.

Key words: Style, language, individual style, monologic speech, diction, expressive imagery, stylistic device.

ХУДОЖЕСТВЕННО-ЭСТЕТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ЯЗЫКА И СТИЛЯ РАССКАЗОВ ЛУКМОНА БОРИХОНА

Аннотация

В статье анализируются стилистические и языковые особенности рассказов Лукмона Бурихона. Подробно рассматриваются эффективное использование автором элементов народной речи, роль живого диалога и диалектизмов, а также значение выразительной образности для раскрытия внутреннего мира персонажей. Обосновывается подход писателя к психологическому изображению героев, а также его самобытный стиль и уникальный метод описания повседневной жизни и социальной среды. Работа представляет значительную научную и практическую ценность для изучения языковых и стилистических характеристик прозы Лукмона Бурихона.

Ключевые слова: Стиль, язык, индивидуальный стиль, монологическая речь, дикция, выразительная образность, стилистический прием.

Kirish. Yozuvchining individualligini belgilaydigan asosiy mezon bu uslub va til sanaladi. Gyote “Uslub – bu odam” deganida, shuni nazarda tutadiki, uslub bu yozuvchining passporti hisoblanadi. Har bir ijodkorning, jumladan yozuvchi Luqmon Bo‘rixonning ijodiy uslubini, badiiy tafakkurini, til va tasvir imkoniyatlarini o‘rganish zamonaviy o‘zbek nasrini tadqiq etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Adabiy jarayonda yozuvchining qoldirgan o‘rni, individual uslubining ahamiyati tadqiqotimizning asosini tashkil etadi. Adib uslubini o‘rganish nafaqat yozuvchining mahorati mezonini belgilashda, balki adabiy jarayon muhitini baholashda ham muhim ahamiyatga molikdir. Ijodkorning uslubini o‘rganishda, yozuvchi murojaat etgan dastlabki janrga e’tiborni qaratish adibning ijodiy o‘sish jarayonini bilishga ham imkoniyat beradi. Prezidentizimiz Sh. Mirziyoyev 2020-yil 20-maydagi “Adiblar xiyoboni” ga tashrifda so‘zlagan nutqida: “Mana, “zamonamiz qahramonlar”, deb ko‘p gapiramiz. Bugun bu qahramonlar koronavirusga qarshi kurashayotgan fidoyi shifokorlarimiz, mard harbiylarimiz, saxovatli tadbirkorlarimiz, vatanparvar yoshlarimiz. Ularning jasorati haqida o‘qishni hammamiz xohlaymiz”, - degan edi. Bu so‘zlarning amaliy natijasi bilan Luqmon Bo‘rixon “Long” hikoyasini yaratganiga guvohmiz. Yozuvchining hikoyalaridagi mavzu va obrazlarida bugunning odamlari qiyofasi va o‘ylari tasvirlangan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Adabiy jarayonda til va uslub muammosini o‘rganish har doim o‘z dolzarbligini saqlab kelgan. Uslub va til bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar qilingan. O‘zbek adabiyotshunosligida bu borada H. Boltaboyevning “Nasr va uslub” (1992), S. Mamajonovning “Uslub jilolari”(1972), M. Sultonovning “Yozuvchi uslubiga doir”(1969) kitoblari shular jumlasiga kiradi. O‘zbek adabiyotshunosligida uslubning nazariyasi obyekt sifatida chuqur o‘rganilmagan. Uslub va til bo‘yicha tadqiqotlar ma’lum bir adabiy shaxsning asarlari va shaxsiyatining uyg‘unligida o‘rganilgan. Tadqiqotimiz obyekti bo‘lgan Luqmon Bo‘rixonning asarlaridagi uslub bo‘yicha esa Y. Turdiyevaning “Luqmon Bo‘rixonning “Jaziramadagi odamlar” romanida badiiy uslub individualligi”(2024) va S. Suleymanovaning “Hozirgi o‘zbek nasrida badiiy psixologizm: uslub va janr uyg‘unligi”(2025) mavzusida ilmiy ishlar qilingan. Adabiyotshunos olima Y. Turdiyeva Luqmon Bo‘rixonning uslubini faqat “Jaziramadagi odamlar” romani nuqtayi nazaridan tadqiq etgan bo‘lsa, S. Suleymanova yozuvchining qissalari misolida adib uslubini o‘rgangan. M. Sadullayeva “Luqmon Bo‘rixonning qissa va hikoyalarida badiiy mahorat masalasi”(2023) mavzusidagi dissertatsiyasining

bir faslida adibning hikoyalari uslubi haqida o‘z qarashlarini izohlaydi. Luqmon Bo‘rixonning ijodining boshlanishi hikoya janri bilan boshlanganligi va adabiy merosining salmoqli qismini hikoyalar tashkil etishi, ijodkorning hikoyalari uslubi va tilini mufassal o‘rganishni taqozo etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda Luqmon Bo‘rixon hikoyalarining uslubiy va lisoniy xususiyatlarini har tomonlama yoritib berish uchun qiyosiy-chog‘ishtirma, badiiy-lingvistik tahlil, psixolingvistik va klassifikatsiya va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Tadqiqotning empirik bazasini esa Luqmon Bo‘rixonning saralangan hikoyalar to‘plami “Tun qa’ridagi shu’la”(2024) va ulardagi lisoniy materiallar tashkil etadi.

Tahlil va natijalar. Ijodkorning adabiyot olamidagi portretini tasvirlaydigan xususiyat uning uslubidir. Insonlar bir-birlaridan tashqi ko‘rinishi orqali yaqqol ajralib turgani kabi, adabiy asarlar yozilish uslubi bilan bir-biridan farqlanadi. “Uslub yozuvchining adabiyotdagi betakror qiyofasi, o‘zligi. Uslub yozuvchi falsafasi in’ikosi”. [1] Luqmon Bo‘rixon inson ko‘nglini mikrotahlildan o‘tkazib yozgani, borni boricha tasvir etgani, ijtimoiy munosabatlar va qalb kechinmalarini ko‘pqirralik bilan tasvirlagani bilan boshqalardan ajralib turadi.

Adabiyotshunos Y.Mahmudov “Hikoya badiiyati” risolasida Luqmon Bo‘rixonning hikoyalarini tahlil etadi va yozuvchining uslubi haqida o‘z qarashlarini bildiradi. “Muallifning hikoyachilikdagi o‘ziga xos uslubiga e’tibor beradigan bo‘lsak, unda sharq va g‘arb an’analarining qorishiq holda kelishi, muallif ularni sintez qilishi bilan birga yangicha o‘ziga xos hikoyanavislik maktabini yaratganiga guvoh bo‘lamiz. Aniqroq aytadigan bo‘lsak, Luqmon Bo‘rixon nafaqat hikoyalarida, balki qissa va romanlarida ham mana shu maktabning yo‘l-yo‘riqlariga amal qiladi. Sharqona uslubning namoyon bo‘lishini hikoyalaridagi shaklan o‘zbek folkloriga xos takrorlarning qo‘llanishi, voqelikning ritmik bir zaylda ko‘tarilishi, qahramonlarga xos holat va asar vaziyatiga moslab tuzilgan gap qurilishlarining mavjudligi kabilar ta’minlagan. Adib shakliy izlanishlar davomida o‘z uslubining poydevori qilib o‘zbek folklori, Qodiriy, Tog‘ay Murod singari yozuvchilar ijodxonasiga suyanadi, deyishimiz mumkin”. [2] Yozuvchining nasrda realizm an’analariga sodiq qolib, xalq tilining jonli jozibasini ko‘rsatishga urinishlarini inobatga olsak, uning Qodiriy va Tog‘ay Murodni ma’naviy ustoz deb bilganiga shubha qilmasa ham bo‘ladi. “Yalangoyoq” hikoyasining syujet va mazmun jihatdan Abdulla Qahhorning “O‘g‘ri” hikoyasiga qiyoslasa bo‘ladigan ko‘plab mushtarak taraflarining borligi esa yozuvchini Qahhorona, “Ovchi qismati” hikoyasining Sh. Xolmirzayevning “Omon ovchining o‘limi” hikoyasiga taqqoslab o‘rganish mumkinligi Sh. Xolmirzayev ijodiga hurmat va taqlidi borligini ko‘rsatadi. Har bir ijodkor o‘zidan oldingi buyuk ijodkorlarga nisbatan hurmat yuzasidan ularni ma’naviy ustoz sifatida ko‘rishi tabiiy hol sanaladi. Ijodiy taqlid hodisasi jahon adabiyotshunosligida ham keng qamrovli hodisa sifatida ko‘riladi. Luqmon Bo‘rixon adabiyot sahnasida o‘zining kiritgan yangicha mazmundagi hikoya va obrazlari bilan esda qoldi. Uning “Shaharlik muallim”, “Tun qa’ridagi shu’la” va “Ko‘ngil sezib turibdi” kabi hikoyalaridagi o‘qituvchilarning hayot yo‘llari, “Boltaboyning bolasi” hikoyasidagi qarindoshlik munosabatlaridagi illatlar, “Temir sandiq” va “Qo‘noq” singari chuqur falsafiy va psixologik ruhga to‘yingan hikoyalari adib ijodining cho‘qqisini belgilaydi. “Uslub davrdan davrga, yozuvchidan yozuvchiga, yozuvchining asaridan asariga o‘tgan sayin o‘zgarib boradi”. [3] Har bir ijodkor ham birdan o‘z uslubiga ega bo‘lib qolmaydi. O‘z “shaxsiy passport” iga ega bo‘lish uchun butun umr zahmat chekadi. Ma’lum bir asarigina yozuvchining shoh asari bo‘lib, yorqin uslubini bo‘y ko‘rsatadi. Qolgan barcha urinishlar esa bu kamolot yo‘lidagi zahmatlar hisoblanadi. A. Fitratning “Adabiyot qoidalari” asarida: “...butun o‘zbek yozg‘uchilarining ifodalari o‘zbekcha bo‘lg‘ani holda har birining o‘ziga maxsus bir uslubi bordir. Biroq, uslubdag‘i bu hol tuban, kuchsiz adib – yozg‘uchining asarlarida o‘zini ochiq ko‘rsata olmaydir. Kuchsiz yozg‘uchilarning uslublari bir-biriga o‘xshab qoladir. Ular oddiy uslubda, umumiy til uslubida yozadir. Shoir – yozg‘uchi san’atkorlikda ko‘tarila borgani sayi(n) o‘ziga maxsus bir uslub yarata boshlaydir. Shoirning xayol, o‘y tushunish shakllari tugal, komil bo‘lg‘ach, o‘ziga yarasha bir uslub borliqqa chiqqan bo‘ladir”,[4] – deyiladi.

Yozuvchi har bir ijodiy yaratig‘idan so‘ng ma’lum darajada yuksaladi. Har bir yozgan asarida o‘zining uslub qirralarini shakllantirib boradi. “...adib uslubi konkret badiiy asarlar yaratish usullarining arifmetik yig‘indisi emas, balki har bir asarda ma’lum darajada namoyon bo‘lgan adibning muayyan o‘zligi deb anglamoq lozim”. [5; 6] Luqmon Bo‘rixon ham kichik hikoyalari orqali o‘zining yakdil uslubini shakllantirishga erishgan.

“Maktub” hikoyasida yumoristik usul muvaffaqiyatli tarzda asar ruhiga singdirilgan. Hikoyaning tili ravonligi, kinoya va kesatiqlarga boyligi uslubining o‘zgachaligini ta’minlagan. Hikoyada takror so‘zlarning, tashbehlarning va yuklamalarning ko‘p foydalanilgani ravonlikni ta’minlagan. Asosiy obraz bo‘lgan Chorining tilining tabiiyligini shevaga xos so‘zlar va jargonlar ta’minlagan. “...Tolli qishlog‘ida guldek ochilib, bulbuldek sayrab, tovusdek tovlanib yurgan Ashirguloy”, “chuvilgan ko‘sakdek bo‘shashib qoldim”, “rangi quv o‘chib, oyog‘i kuygan tovuqdek tipirchilib” kabi xalq tilidagi ifodalarning go‘zal tashbehlar bilan berilishi yozuvchining nutqiga xos bo‘lgan alohidalikni namoyon etadi. Hikoyada takror va juft so‘zlarning qo‘llanilishi obraz nutqida ritmni hosil qilgan. Chorining til uslubi xalqona va jaydari bo‘lishini ta’minlagan. “Hormay-tolmay, hamma-hammalaringga, gartak-gartak, chuldir-chuldir, temir-tersak, qog‘oz-pog‘oz, qayta-qayta, o‘ylab-o‘ylab, unnay-unnay, tez-tez” . Bu kabi birikmalar Chorining xarakteri va emotsional holatini yorqin ko‘rsatish uchun ham qo‘llanilgan. “Shu kuni sal kam kechgachga jiqqa terga tushib unnay-unnay, la’nati o‘sha vimpelni sug‘urib oldim”.[6] Bu yerda adib takroriy so‘zdan obrazning vimpelni sug‘urib olishga majburiyligi va buni xohlamasdan bajarayotganini ko‘rsatish uchun ishlatgan. Yozuvchi takrorlardan ekspressiv-stilistik vosita sifatida foydalangan. “Norqo‘zi: qog‘oz-pog‘oz top, yarmini bo‘lib beraman”.[6] Bu gapda esa Norqo‘zi Choriga tezroq bir narsa amallab topgin nosvoyga faqat tezroq bo‘lgin degan ma’noda obrazning ayni momentdagi holatini ifodalash uchun ishlatilgan. Chori obrazining tilida vulgarizmni ham ko‘rish mumkin. “O‘, ukag‘a-a-ar, qaerdan topding?”[6] Bu so‘z asosan haqorat ma’nosida ishlatilsa ham, bu yerda Chorining xursandligini ifodalash uchun foydalanilgan. Norqo‘ziga nisbatan hazilomuz tarzda aytiladi. Chorining emotsional holati yuqori ekanligini ko‘rsatgan. Verblyud, dnevalnik, naryad kabi jargonlarning qo‘llanilishi hikoya jarayonlari yuz berayotgan muhitning tasvirini yorqin chizishga imkon yaratgan.

Luqmon Bo‘rixon hikoyalarida ko‘p nuqtadan ham o‘rinli ravishda ko‘p o‘rinlarda foydalangan. “Kuz ertagi” hikoyasida:

“- Bu... bu... – Yo‘ldoshboy tutilib qoldi. – Bu... paxta hashariga odamlardan bugun ham yuborasizmi?”[6] Ushbu holatda qahramonning gapirishda tutilib qolishi, hayajonlanishini ko‘rsatish uchun yozuvchi ko‘p nuqtadan foydalangan. Yo‘ldoshboyning muovin yonida o‘zini past bilib, ikkilangan holatini vaziyatni ochiqroq ko‘rsatish uchun ko‘p nuqtalarga murojaat etilgan. O‘ylarga to‘la qahramon Yo‘ldoshboyning nutqida ko‘p nuqtalarning foydalanilishi, keksa obrazning ko‘p hikmatga boy inson ekanligiga ham ramziy ishora sifatida qarash mumkin.

“- Mening... bolam yo‘q. Xotinim qazo qilganiga ham besh yil bo‘ldi”.[6] Bu holatda esa Yo‘ldoshboyning og‘ir o‘yga tushib qolganligi, ruhiy iztirobining ifodasi sifatida ishlatilingan. Emotsional holatning yozuvdagi aksi sifatida qarash mumkin.

“- O‘zim... shunchaki... shunchaki... yaxshi xabar ekan... Qari-qartang qo‘shnilar bor. Serfarzandlari ham bor... shular uchun... Ular o‘qimagan bo‘lishsa, mendan eshitishadi... Nimasi yomon... Savob bo‘lar...”[6] Ushbu gapda esa keksalarga xos vazminlik, chuqur o‘y va har bir gapdan keyin ichki dardning tashqi ifodasi bo‘lgan pauzalar uchun ko‘p nuqta ishlatilgan.

“Yo‘ldoshboy hang-u mang bo‘lib avtobus izidan qarab qoldi. Sovuq kuz shamoli oyoqlari ostiga xazonlarni to‘plardi...”[6] Qahramonning ruhiy holati, voqea-hodisaning sokin davom etayotgani ma’nosida tasviriy-pauza vazifasida ko‘p nuqta qo‘llanilgan. Ushbu gap hikoyaning so‘nggi gapi bo‘lsa ham, hikoyaning hali tugallanmaganligi, hali qanaqadir o‘ylar va fikrlar mavjuddek, ijodkor uni kitobxondan kutgandek ma’noda

tasvirlangan. Ko‘p nuqta obrazlarning psixologik holatini ochib beradigan eng asosiy unsurlardan biri hisoblanadi.

Ijodkor uslubi zamondoshlarining qiyofasini jonli va haqqoniy tasvirlagani, ularning ruhiyatidagi qarama-qarshiliklarni va chuqur psixologik tadqiqi, badiiy detallardan unumli foydalangani, falsafiy mushohada va sodda til bilan yozganligi jihatlaridan alohidalik kasb etadi.

“Kutilgan kun” va “Qorxat” hikoyalarining so‘nggi psixologik parallelizm bilan tugagan. “Kutilgan kun” hikoyasida Boyxonning ruhiy holati va tabiat tasviri uyg‘unlikda tasvirlanadi. Ya’ni Boyxonning hayotidagi qiyinchiliklar, ichkilik oqibatidan yuz berayotgan oilasidagi muommolar va o‘zining hayotining ma’nosiz bo‘lib borayotgani kunning qorong‘ulikka joy bo‘shatib berayotgani, hamda u tobora jadallashayotgani bilan ifodalanadi.

“Boyxon qayoqqa yurarini bilmay ancha vaqt eshik oldida garangsib turib qoldi. Uning qulab tushgiday chayqalayotganini, g‘uldurab, tushunuksiz so‘kinayotganini ko‘rgan o‘tib-qaytuvchilar o‘zlarini darhol chetga tortishardi.

Qorong‘ulik tobora quyuqlashardi...”[6]

Yozuvchi deyarli har bir hikoyasida yuklamalardan unumli foydalangan. Bu esa personajlar nutqiga emotsional ruh bag‘ishlagan. Milliy koloritni ham aynan yuklamalar va dialektizmlar orqali bergan. Fonetik yo‘l bilan, ya’ni so‘zlarni cho‘zib yozish orqali obraz kayfiyatini o‘quvchiga yuqtirmoqchi bo‘ladi. Folklorga xos motivlardan ham foydalaniladi.(“Yigit iltijosi” hikoyasida Tilladev motivi) “ – Tilladev, jo-on, Tilladev, tezroq tusha qolgi-in! Tilla yolingni bi-ir silay, sendan ko‘p narsa so‘ramayman, Bibisoraning dardiga davo bersang bo‘ldi, jo-on, Tilladev, tusha qolgin...” [6] matndagi jo-on, qolgi-in va bi-ir kabi fonetik cho‘zish usuli bilan yozilgan so‘zlar Salimning ruhiy iztirobi va nolasini ishonchli va hayotiy chiqishini ta’minlagan.

Luqmon Bo‘rixonning hikoyalarida voqea yuz beradigan manzil, ya’ni makon va vaqt ham muhim ahamiyatga ega. “Tun qa’ridagi shu’la”, “Qo‘noq”, “Yalangoyoq” kabi hikoyalarning yuz beradigan joyi poyezddir. Buni bevosita yozuvchining qismat yo‘li bilan bog‘lash mumkin. Ijodkor azim Toshkent-Qashqadaryo yo‘nalishida ko‘p vaqtini o‘tkazganligi aniqdir. Bu yo‘l esa adibga taassurot va g‘oyalarni bergan bo‘lishi tayin. Ba’zi hikoyalarining ichida hikoya kelish holati uchraydi. “Tokchadagi tumor” va “Yigit iltijosi” hikoyalarida alohida mavzu g‘oyasiga mos ravishda hikoyatlar beriladi. Bu usul bilan yozuvchi asosiy qahramonning xarakteri va nimalarga qodirligini ko‘rsatish bilan birga, hikoya mavzusining ta’sirchanligini oshiradi. Hikoya o‘zi kichik nasriy asardir. Shu kichik nasriy asarning ham tarkibida hikoyat qo‘llashlik mahorat hisoblanadi. “Tokchadagi tumor” hikoyasida keltirilgan muqaddas tumor haqidagi va “Yigit iltijosi” hikoyasidagi Tilladev haqidagi hikoyatlar muhabbat mavzusiga bag‘ishlangan. “Badiiy asarda qo‘llangan ifodalar, badiiy tasvir vositalari, frazeologik birikmalar, xalq og‘zaki ijodi namunalari – maqol, matal, rivoyat va hikoyatlar ijodkorning iste’dod qirralarini, badiiy tafakkuri va syujet qurish mahoratini ko‘rsatuvchi omillardan biri sanaladi”,- deydi D. Xoldorov.[7]

“Uslub – bu muallifning badiiy ifoda vositalarini tanlash va qo‘llashdagi o‘ziga xosligi, ya’ni uning hech kimga o‘xshamagan, o‘zgacha bo‘lgan ijodiy yo‘nalishidir” .[8] Ijodkorning kim ekanligi uning asarlaridan, asarlaridagi uslubidan va novatorligidan bilinib turadi. So‘z bu umumxalqning mulki, ammo uni tanlab ma’naviy meros sifatida avlodlarga qoldiradigan, so‘z sehrini zamondoshlariga his qildiradigan ijodkor sanaladi. Uslubni namoyon qiluvchi vosita badiiy tildir. Yozuvchi so‘zni tanlab olib o‘z uslubini voyaga yetqazadi. Luqmon Bo‘rixonning eng mashhur asarlaridan biri “Imom Moturidiy” romanidir. Adib bu romanga qo‘l urishdan oldin tarixiy yo‘nalishda hikoya ham yozib ko‘rgan. “Aldoqchi tunlar” hikoyasi tarixiy mavzuda yozilgani bilan boshqa hikoyalardan ajralib turadi. Ijodkorning “Tun qa’ridagi shu’la” to‘plamiga kirgan hikoyalari ichida 6 ta o‘qituvchilar hayoti yoritilgan, 3 ta talabalar hayoti, 1 ta tarixiy, 2 ta bolalar hayoti hamda “Long” va “O‘tirik” hikoyalaridan tashqari boshqa hikoyalarida yoshlar hayoti tasvirlanganini inobatga olinsa, adibning o‘qituvchilarga bo‘lgan alohida hurmat va e’tirofini sezish mumkin. Hikoyalarida zamondoshlarining qiyofasi, o‘ylari va taqdir sinovlari badiiy bo‘yoqlarda chiziladi. Bugungi kunning odami o‘zgacha o‘y va qarama-qarshi hislar to‘qnashuvida gavdalanadi. Yozuvchi hech qaysi obrazini ulug‘lab ideal holatda tasvirlashga urinmaydi. Insonni boricha aks ettirishga, oddiy banda xato va nafsdan holi bo‘lmagan shaxs ekanligini ko‘rsatishga urinadi. Buning yorqin dalilini esa “Jaziramadagi odamlar” romanida Lola qiyofasida yorqin gavdalantiradi. Hamma hikoyalari realizm uslubida yozilgan. Insonning psixologik holatlarini chuqur taftish qilib yoritolgani bilan Luqmon Bo‘rixon luqmonona uslub yaratgan. “Kechikkan ko‘z yoshlar” hikoyasida adib ichki monolog vositasida obrazning xarakterini ochib beradi. Ichki monolog vositasi bilan obrazning pushaymonligi va vijdonining sofligi ochiqlanadi. Insonning murakkabligi tuyg‘ularining xilma xilligi ifodalanadi. Yozuvchi hikoyalarida ichki monolog bilan obrazning haqiqiy o‘zligi, tuyg‘ulari, yashirin qo‘rquvlari, qaror qabul qilish jarayonidagi ikkalanishlar, o‘tmish xotiralari va afsuslar (“Dard” hikoyasida), tashqi olamga, insonlarga subyektiv munosabatini (“Boltaboyning bolasi”) ko‘rsatadi.

Xulosa va takliflar. Tahlillardan ma’lum bo‘ldiki, Luqmon Bo‘rixonning uslubi o‘ziga xos individual tarzda shakllangan. Til birliklari badiiy maqsadga muvofiq qo‘llangan. Obraz, ruhiyat va kompozitsiya uzviy bog‘liq holda namoyon bo‘lgan. Ijodkorning hikoyalarini til jihatdan tahlil etishda so‘zlarning konnatatsiyasining chastotasiga emas, ma’noviy mazmuniga e’tibor qaratish lozim. Luqmon Bo‘rixon asarlarida qo‘llangan iboralar, dialektizmlar va xalqona so‘zlarni alohida lug‘at shaklida jamlash – adib nasrining til xususiyatlariniyanada chuqurroq o‘rganishga va adabiy jarayonda til va uslubning o‘zgarishlarini baholashga imkon beradi. Ijodkor adabiy merosini tahlil etishda esa zamondosh yozuvchilari bilan birga qiyosiy o‘rganib tahlil etish adabiy jarayonni sintez qilishda muhim manbalarni taqdim etadi. Yozuvchining hikoyalaridagi til va uslub shunchaki voqelikni bayon etish vositasi emas, balki qahramonlar ruhiyatiga, ularning ijtimoiy kelib chiqishi va ichki dunyosiga eltuvchi ko‘prikdir.

ADABIYOTLAR

1. Rasulov A. Badiiylik – bezavol yangilik. – Toshkent. “Sharq”. 2007. -B. 70
2. Маҳмудов Й. Ҳикоя бадиияти.(Луқмон Бўрихон ҳикоялари мисолида). – Тошкент: “Турон замин зиё”. 2017. -Б. 15.
3. Худойбердиев Э. Адабиётшуносликка кириш. – Тошкент. 2008. – Б. 329
4. Фитрат А. Адабиёт қоидалари. – Тошкент. Маънавият. 2006. – Б. 17.
5. Болтабоев Ҳ. Наср ва Услуб. – Тошкент. Фан. 1992. – Б. 6.
6. Bo‘rixonov L. Tun qa’ridagi shu’la. – Toshkent. Oltin qalam. 2024.
7. Xoldorov D. Ijod mohiyati – uslub xosiyati. – Toshkent. Turon zamin ziyo. 2017.
8. Soliyeva K. Zamonaviy qissalarda uslub va til // Центральноазиатский журнал академических исследований. – 2026. – Vol. 4, Issue 5. – B. 83-86.